

# Yorqin Payshanba - 20% chegirma

**2023 23 Avgust**

Shu hafta, Uzbekistan Airways "Yorqin Payshanba" aksiya doyrasida Toshkentdan Blagoveshchensk, Grozniy, Dubay, Sharja, Myunxen va ortga qaytuvchi yo'nalishlarning parvozlari jadvali tugagunga qadar aviachiptalar tariflari narxiga 20% chegirma e'lon qiladi.

Chegirma faqat bir kun, 24-avgust soat 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi va yuqoridagi barcha reyslarga taalluqlidir! Batafsil ma'lumot [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) saytida.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 24-avgust soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
  - kattalar uchun tarifdan - 20%;
  - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun - bolalar tarifiga mos ravishda - 20%;
  - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 24.08.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalarini bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Blagoveshchensk, Grozniy, Dubay, Sharja, Myunxen va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

“Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.